

**BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING
IJODIY FIKRLASH MALAKASINI SHAKLLANTIRISHNING
ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI**

Qo'qon Universiteti Ta'lim fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Ochildiyeva Ozodaxon Saydali qizi

ochildiyevaozodaxon@gmail.com

Ilmiy rahbar: Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi

Ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning ijodiy fikrlash malakasini shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning afzalliklari va darslarda o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha metod va usullarning dars samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatishi hamda amaliyotga joriy qilish uchun tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: ijod, ijodiy fikr, ijodkorlik, texnologiya, boshlang'ich sinf o'quvchilari.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning integratsiyasi orqali o'quvchilar nafaqat bilim, balki ijodiy va analitik fikrlash ko'nikmalariga ham ega bo'lishi mumkinligi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik tavsiyalarni taqdim etadi, ular orqali ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan qanday samarali foydalanish mumkinligi ko'rsatilgan.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan uzviylik va uzluksizlik tamoyili o'quvchilar aqliy qobiliyatini bir maromda to'xtovsiz rivojlanishini taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining: "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi", –deb ta'kidlaganlarida "Uchinchi Renessans poydevori"ni ta'lim islohotlarida ko'rdi. Bugungi kunda ta'lim tizimida buyuk islohotlar amalga oshiralayotgan

zamonda ijodiy fikrlovchi yoshlarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortmoqda.¹ Zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarga ijodiy fikrlashni rivojlantirishda, muammoli vaziyatlarni hal qilishda, o'z fikrlarini erkin ifoda etishda, g'oyalarni yaratishda yordam beradi.

Boshlang'ich ta'lim Davlat ta'lim standartining „Kirish“ qismida, „Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o'zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o'rgatadi“, — deb alohida ta'kidlangan. Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi.² Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni ijodiy fikrlash malakasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Har bir yosh avlod mustaqil fikrlaydigan, erkin fikr yuritadigan shaxs bo'lib shakllanmog'i lozim. Ijodiy fikrlash malakasini shakllantirish tamoyillari boshlang'ich sinf o'quvchilarini qiziqishini o'stirib, dars jarayoniga jalb qilish, ularni qiziqtirgan mavzularda ishlash hamda mustaqil fikrlay olish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda joriy etilgan Yangi avlod darsliklari mavzulari yuzasidan to'xtaladigan bo'lsak darslikdagi savol va topshiriqlar o'quvchilarni fikrlashga undaydigan ayniqsa, ijodiy fikrlash malakasini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Ta'lim to'g'risida“gi qonunda „Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish

¹ Prezident Sh.Mirziyoyevning “O'qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag'ishlangan tabrik nutqi. Toshkent, 2020

² <https://kun.uz/news/2019/11/27/boshlangich-sinfda-oqitishning-zamonaviy-texnologiyalaridan-foydalanish-usullari>

uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir", deyiladi. Shundan kelib chiqqan holda „Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limining maqsadi, vazifalari sifatida bolaning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglashi, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda bayon qila olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.³

O'rta maktabda o'quvchilarning kreativlik tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan vazifalar majmuasini ishlab chiqishda o'qitishning uchta usuli-amaliy, ko'rgazmali, muammoli va topshiriqni bajarish shakli-yakka, juftlik, guruhda asos qilib olinadi.

Shaxs tafakkurining shakllanishi va rivojlanishi, o'quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi respublikamiz hamda qator xorijlik pedagog psixolog olimlar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan.

Lev Vygotskiy, ijodiy fikrlash jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan “sotsial-interaktiv” nazariyani o'rgandi. U, bola ijtimoiy muhitda o'z fikrlarini rivojlantirishi va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishi kerakligini ta'kidlagan.

Segundo Marcos hamda Vang “Ijodiy fikrlash va yozish ikkita muhim qobiliyatdir. Ular bir-birini to'ldiradi, chunki yozish uchun ko'proq vaqt sarflagan o'quvchilar yaxshi ijodiy fikrlashni namoyish etadilar. Bundan tashqari, og'zaki iboralar, jumladan, og'zaki muloqot va kompozitsiya o'quvchilar ijodiyotining ko'rgazmasidir.”⁴

Meng-Meng Li and Chia-Ching Tu Ijodiy fikrlash - bu aqliy jarayon bo'lib, unda odamlar yangi va noan'anaviy g'oyalar va murakkab muammolar va muammolarga xayoliy echimlar ishlab chiqaradilar. Bunda an'anaviydan qochadigan, innovatsiya va innovatsiyani rag'batlantiradigan kontseptsialarni yaratishga hamda muammoni hal qilish undashi haqida so'z boradi.

³ K. Qosimova, S.M atchonov, X.G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev”Ona tili o'qitish metodikasi”(196-bet)

⁴ “Creating my own story: Improving children's creative thinking and composition creativity through a three-staged individual-group-individual story writing framework”Hsu-Chan Kuo,Chu-Yang Chang,Jian-Ping Wang, Estelle Linjun Wu, Pei-Lin Li (2-bet)

N.Abduraxmonovanning “Boshlang’ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash malakasini shakllantirish uslubiyoti” dissertatsiya ishida keltirib o‘tilganidek, “O‘quvchi yoshlarda mustaqil fikr, fikr erkinligi, mustaqil tafakkurni shakllantirish murakkab jarayondir. Mazkur jarayonga baho berishda, dolzarbligini alohida ta’kidlashimizda muhim o‘rinni, birinchidan, uning mamlakatimizning bugungi kuni va istiqboli uchun benihoya zarur ekanligini, ikkinchi tomondan esa, unga kompleks yondashish kerak ekanligini tushunishimiz zarur. Bu o‘rinda hozirgi zamon fani metodologiyasining muhim tamoyili bo‘lgan fanlar integratsiyasi omilidan keng foydalanish kerak. SHundagina, bir tomondan, ijodiy fikr, tafakkur erkinligini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar tug‘iladi, ikkinchi tomondan, ijodiy fikrni amalga oshirish imkoniyatlari kengayadi, uchinchi tomondan, fikr erkinligini kuzatish, o‘rganish, tahlil qilish usullarini takomillashtirish mumkin bo‘ladi.”⁵

S.Muhammadiyeva “Bolalarda tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish” nomli maqolasida “O‘quvchilar ijodiy va tanqidiy fikrlash orqali murakkab muammolarni hal qilish ko‘nikmasini egallaydi. Pedagogik strategiyalar va qiyinchiliklar Karimov tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda pedagoglarning duch keladigan qiyinchiliklarini tahlil qiladi. Uning fikricha, vaqt cheklovlari va an‘anaviy baholash usullari o‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga to‘sqinlik qilishi mumkin⁶”. degan fikrlarni keltirib o‘tadi.

Ona tili darslarida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash malakasini rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan tajriba-sinov natijalaridan ko‘rishimiz mumkinki. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi uchun zarur sharoitlar yaratilsa, ijodiy fikrlashga yo‘naltiradigan didaktik

⁵ N.Abduraxmonova “Boshlang’ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash malakasini shakllantirish uslubiyoti”Dissertatsiya 25-bet

⁶ International Journal of Education, Social Science & Humanities.Finland Academic Research Science PublishersS.Muhammadiyeva “Bolalarda tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish”(150)

o'yinlar, mashqlar va topshiriqlardan, ijodiy ishlardan izchil va muntazam foydalanilsa, muammoli vaziyatlar yaratilib, uni o'quvchilarning o'zlari hal etishlari uchun imkon berilsa, o'qituvchi-o'quvchi munosabatida «sub'ekt-sub'ekt» munosabati o'rnatilishi ijobiy samaralar berishi asoslandi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beruvchi didaktik shart-sharoitlarni aniqlashtirish zarur ekanligi isbotlangan.

Xulosa qilamizki, boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida o'quvchilarning ijodiy fikrlash malakasini shakllantirishda tashkil etiladigan turli xildagi metod, topshiriq, muammoli vaziyat va savollar o'quvchilarni fikrlashga katta ta'sir ko'rsatadi. Pedagog o'qituvchilar o'z ustida ishlagan holda har bir darsga oddiy dars emas balki san'at asaridek qarab, yangicha yondashuvlar, metodlar hamda o'quvchilarni fikrlashga undaydigan muammoli vaziyatlar yaratgan holda tashkil etsa ta'lim jarayonida samarali natijalarga erishishi hamda, o'quvchilarning ijodiy fikrlash darajalarida ham o'sish ko'rsatkichlarini kuzatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.A. Abduraxmonova (2025). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK KO'NIKMALARINING ROLI. *Inter education & global study*, (1 (1)), 15-21.

N.A. Abduraxmonova. "BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK KO'NIKMALARINING ROLI" *Inter education & global study*, no. 1 (1), 2025, pp. 15-21.

2. Madinabonu Shuxratjon qizi, & Esonaliyeva Guluzra Komiljonova. (2023). INSON QADRI VA BARKAMOL AVLOD SHAKLLANISHIDA PEDAGOGIKANING O'RNI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 788–789. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.717>

3. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG'LANISH ASOSIDA

BOSHLANG'ICH TA'LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 198–201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>

4. Abduraxmonova, N. (2022). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINI METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOSINING PEDAGOGIK ZARURIYATI. *Science and innovation*, 1(B8), 2114-2121.

Abduraxmonova, N. "BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINI METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOSINING PEDAGOGIK ZARURIYATI." *Science and innovation* 1.B8 (2022): 2114-2121.

5. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA CHET EL O 'QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 783-785.

6. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). Bo 'lajak boshlang 'ich sinfi o 'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208-211.

Abduraxmonova, N. A. "qizi. (2023). Bo 'lajak boshlang 'ich sinfi o 'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida." *Educational Research in Universal Sciences* 2.12: 208-211.

7. Nigoraxon, A., & Mohlaroy, A. (2024). boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(1), 83-87.

Nigoraxon, Abduraxmonova, and Alijonova Mohlaroy. "boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi." *Yosh Tadqiqotchi Jurnal* 3.1 (2024): 83-87.

8. Абдурахмонова Нигораксон. (2024). ИДЖОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА БО'ЛАДЖАК БОШЛАНГИЧ СИНФИ О'КИТУВЧИЛАРИНИНГ ИНДИВИДУАЛЬНО-ШАКСИЙ СИФАТЛАРИ. *Университетская исследовательская база* , 55–58.

9. Kalendarova, Z. K. (2022). Innovative model of shaping students' creative thinking skills in primary education in the process of creating problem situations and its content. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE*, 11-137.
10. KALENDAROVA, Z. K. (2021). PRIMARY EDUCATION-THE FOUNDATION OF GENERAL SECONDARY AND HIGHER EDUCATION. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (6), 350-332.